

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

TURSUNOVA NODIRABEGIM FAYZULLO QIZI

LEKSEMA HAMDA FRAZEMANING MUSTAQIL
TIL BIRLIGI SIFATIDAGI MAQOMI VA ULARNING
LEKSIK-FRAZEOGRAFIK TALQINI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of the doctor of sciences (DSc)

Tursunova Nodirabegim Fayzullo qizi

Leksema hamda frazemaning mustaqil til birligi sifatidagi maqomi va ularning

leksik-frazeografik talqini.....3

Tursunova Nodirabegim Fayzullo qizi

The status of lexeme and phraseme as independent linguistic units and their lexicographic and phraseographic interpretation.....31

Турсунова Нодирабегим Файзулло кизи

Лексема и фразема как самостоятельные языковые единицы и их лексико-фразеологическая интерпретация.....61

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....66

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

TURSUNOVA NODIRABEGIM FAYZULLO QIZI

LEKSEMA HAMDA FRAZEMANING MUSTAQIL
TIL BIRLIGI SIFATIDAGI MAQOMI VA ULARNING
LEKSIK-FRAZEOGRAFIK TALQINI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/Fil1080 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Andijon davlat chet tillari instituti rasmiy saytida (www.adchti.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Umarxo'jayev Muxtorxon Eshonxo'jayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Saidxonov Ma'murjon Muhammedovich
filologiya fanlari doktori, professor

Xoshimova Dildora Madaminovna
filologiya fanlari doktori, professor

Bushuy Tatyana Anatolyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko'chasi, 5-uy. Tel:0(374) 223-42-76; faks: 0(374) 223-42-76; e-mail: info@asifl.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko'chasi, 5 uy.

Tel: 0(374)223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.Dj.Ataboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

M.A.Abduvaliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida qadimdan tilning asosiy, ma'no tashuvchi va nominativ birligi sifatida leksema hamda frazema (frazeologik birlik) keng tadqiq etilgan bo'lsa-da, ularning o'zaro munosabati, chegaralari va tasnif mezonlari masalasi hali ham to'liq hal etilmagan. Xususan, leksema va frazema o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni aniqlashda yagona, izchil nazariy mezonlarning yo'qligi natijasida ushbu birliklarning lug'atlarda aks ettirilishi, tarjima jarayonida qo'llanishi hamda ularni avtomatik qayta ishlash tizimlarida identifikatsiya qilishda qator muammolar yuzaga kelmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda, ayniqsa, leksikografiya va frazeografiya sohalarida til birliklarini aniq tasniflash, ularning semantik va funksional xususiyatlarini to'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, leksema va frazema munosabatlarini an'anaviy binar oppozitsiya doirasida emas, balki gradient va prototipik yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish ilmiy jihatdan zarurdir. Mazkur masalaning dolzarbligi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim bo'lib, u lug'at tuzish amaliyoti, ko'p tilli tarjima jarayonlari, tilni o'qitish metodikasi hamda zamonaviy raqamli lingvistik texnologiyalarni rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir.

Dunyo tilshunosligida leksemalar uzoq vaqtdan buyon struktur-semantik, funksional-stilistik hamda grammatik jihatdan izchil tadqiq etib kelinayotgan bo'lsa-da, frazemalar (frazeologik birliklar) asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida keng miqyosda o'rganila boshladi. Natijada til tizimida leksik qatlam bilan bir qatorda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan alohida frazeologik tizim mavjudligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shu bilan birga, leksik va frazeologik tizimlarning o'zaro munosabatlari, ularning chegaralari, o'zaro kesishuvchi va farqlovchi jihatlari hamda tasnif mezonlari masalasi hanuzgacha yagona nazariy yechimga ega emas. Xususan, leksema va frazemaning mustaqil til birligi sifatidagi maqomini aniqlash, ularning semantik va funksional xususiyatlarini izchil mezonlar asosida tavsiflash, shuningdek, bu birliklar o'rtasidagi o'tish hodisalarini ilmiy asosda tushuntirish zarurati mavjud.

Mamlakatimizda so'nggi yillardagi keng ko'lami o'zgarishlar tilshunoslar uchun ham katta mas'uliyat yuklamoqda. Zero, respublikamizda ilm-fanni yanada taraqqiy ettirish maqsadida "oliy ta'limni rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani tadqiq qilish va ularning natijalarini ommalashtirish; ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish, davlat ilmiy va innovatsion dasturlari ijrosini muvofiqlashtirish, shuningdek, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida integratsiyani ta'minlash; ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari asosida davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish, ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish" vazifalari asosida samarali islohotlar olib borilmoqda¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200

Ayniqsa, ko'plab xorijiy tillarni o'rganishga qaratilgan yo'nalishlar, qator bir, ikki hamda ko'p tilli lug'atlarga ehtiyoj tug'ilmoqda. Shu o'rinda, frazeologik o'quv lug'atlarini, ikki va ko'p tilli lug'atlar tuzish tamoyillarini ishlab chiqish talab etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, leksema va frazema o'rtasidagi chegaraning noaniqligi, ularning semantik, struktur va funksional jihatdan o'zaro kesishish nuqtalari nafaqat nazariy, balki amaliy tilshunoslik uchun ham dolzarb masaladir. Chunki bugungi kunda til tizimini chuqur tahlil qilishda gradient va prototipik yondashuvlar, shuningdek kognitiv lingvistika metodlari tobora ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan qatorda, leksema va frazemalarning o'zaro munosabatini tizimli, ko'p qatlamli tahlil asosida o'rganish nafaqat nazariy leksikologiya va frazeologiya, balki amaliy leksikografiya, tarjimashunoslik, kompyuter lingvistika va ta'lim jarayonida tilni samarali o'qitish metodikasi uchun ham zaruriy ilmiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son

"2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi

PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi².

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Leksema va frazemalarning leksik-semantik tizimdagi maqomini aniqlash, ularning lingvokulturologik hamda kognitiv talqini, shuningdek, ularning lug'atlarda leksiko-frazeografik tasviriga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, University of Pittsburgh, Cambridge University, Oxford University, SOAS University of London, Lancaster University, University of Edinburgh (Buyuk Britaniya), Ohio State University (AQSh); A.I. Gersen nomidagi Rossiya

-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-6518515>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlarning sharhi www.edu.uz; academia.edu; philology.ru; internauka.ru; cyberleninka.ru; researchgate.net; ziyonet.uz va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

davlat pedagogika universiteti, Rossiya;

I.I. Mechnikov nomidagi Odessa milliy universiteti, Ukraina; Moskva davlat lingvistika universiteti, Moskva davlat pedagogika universiteti, Rossiya fanlar akademiyasi tilshunoslik instituti, Belarus davlat universiteti (Belorus), O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Andijon davlat chet tillari instituti,(O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Jahon tilshunosligida leksik va frazeologik birliklarning mustaqil til birligi sifatidagi maqomini aniqlash, ularning til tizimidagi o'рни hamda leksikografik va frazeografik tavsifini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator ilmiy natijalarga erishilgan: frazeologik birliklar o'zining tarkibiy qismlari va struktur jihatidan o'xshash bo'lgan erkin birikmalardan farqlari va frazemalar nafaqat kommunikatsiya vositasi sifatida, balki turli ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlar manbai sifatida ham muhim ekanini isbotlangan (Кубанский государственный университет); frazeologik birliklar ma'nosini tavsifiy modellashtirish muammosi kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan (Владимирский государственный университет); korpus ma'lumotlari asosida frazemalarning iyerarxiyasi va funksiyalarini tavsiflovchi yangi MW qolip frazeografiyasi konsepsiyasi muhokama qilingan (Institut für Deutsche Sprache, Mannheim); frazemalar har qanday til lug'at boyligining juda muhim qismini tashkil etishligi va shuning sababli ular izohli lug'atda tizimli tarzda berilishi o'rganilgan (Université de Montréal, Canada); ingliz va norveg korpuslaridan foydalanib, vaqt bo'yicha va tillararo qiyoslash orqali parallel frazemalarning kelib chiqishini tekshirilgan (Norwegian School of Economics); idiomatic ma'no semantika va shakl muvofiqligidan kelib chiqqan, o'zgaruvchan darajali hodisa ekanligi ko'rsatilgan (Charles University, Czech); frazeologik birliklarning ta'rifi, ma'no tarkibi va ularni tahlil qilish uslublari bo'yicha umumlashtirilgan ilmiy xulosalar berilgan (Azerbaijan University of Languages, Baku); frazemalarning milliy-madaniy va tillararo xususiyatlari, ularning lug'atlarda aks ettirilishidagi tipologik farqlar aniqlangan (Samarqand davlat chet tillar instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Andijon davlat chet tillari instituti, Farg'ona davlat universiteti).

Dunyo tilshunosligida leksik va frazeologik birliklarning mustaqil til birligi sifatidagi maqomini hamda ularning leksiko-frazeografik talqinini o'rganish bo'yicha, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: leksema va frazemalarning lingvistik maqomini aniqlash hamda ularning til tizimidagi chegaralarini belgilash; ushbu birliklarning xalq dunyoqarashida ifodalanishi hamda leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish; lug'atlarda (leksiko-frazeografiyada) berilish prinsiplari va tasnif usullarini ishlab chiqish; fonetik, leksik va morfologik jihatdan leksema hamda frazemalarning ilmiy uslubdagi qo'llanish xususiyatlarini tahlil qilish; frazeologik birliklarning semantik maydonini va leksemalar bilan o'zaro aloqadorligini ochib berish; leksik va frazeologik birliklarning kognitiv hamda lingvokulturologik aspektlarda tasnifini yaratish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Til birliklarining nomlovchi vosita maqomini belgilashda V. Humboldt qarashlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Faylasuf tilni xalq ruhiyatining ifodasi sifatida talqin qilgan bo'lsa, uning izdoshi L. Vaysgerber tilni borliqni yaratadigan kuch deb baholaydi va so'zlar orqali narsa-hodisalarga tartib berilishiga urg'u beradi. Ushbu g'oya davomchilari E. Sepir va B. Uorfning lingvistik nisbiylik nazariyasida yanada rivojlantirib, nomlash jarayonining inson tafakkuri va dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda isbotlagan⁴.

Rus va g'arb tilshunosligida nominatsiya va leksik birliklarning semantik mohiyatiga bag'ishlangan A.A. Ufimtseva, V.V. Vinogradov, E.S. Kubryakova, N.D. Arutyunova, A.V. Zvigensev, A.I. Smirnitkiy, D.N. Shmelev, Y.D. Apresyan kabi olimlar fundamental ishlarida so'z – predmet – ma'no munosabatini nominatsiya nazariyasi doirasida chuqur o'rganganlar⁵. J. Layons, D.A. Krus, J. Lich, S. Ullmanning ishlarida leksik semantika masalalari alohida o'rin tutadi⁶. R. Yakobson tadqiqotlarda so'zning struktur-semantik xususiyatlari, paradigmatic va syntagmatic munosabatlari keng tahlil qilingan⁷.

O'zbek tilshunosligida nominatsiya masalasi qator tadqiqotlarda yoritilgan bo'lib, M. Ravshanov, L.S. Xudoyberdiyeva, A.A. Rahimov, Sh.T. Maxmaraimovalarning hozirgi kundagi ilmiy izlanishlarida so'z va ma'no, nominativ va kommunikativ funksiyalar keng tadqiq qilingan⁸.
Professor

⁴ Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры / Ред-я и вст. ст. А.В.Гулыга, Г.В.Рамишвили. А.В.Гулыга. Философская антропология Вильгельма фон Гумбольдта (С. 7-25) Г.В.Рамишвили. От сравнительной антропологии к сравнительной лингвистике (С. 309-318). – М.: Прогресс, 1985. – 452 с. (С. 51.); Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа. / Пер. с нем., вступ. ст. и коммент. О.А.Радченко. – М.: Изд-во МГУ, 1993. – 224 с; Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, Универс, 1993. – 656 с.; Уорф Б. Отношение норм поведения и мышления к языку. Наука и языкознание. Лингвистика и логика // Новое в лингвистике. Вып. 1. – М., 1960. – С. 135-198.

⁵ Уфимцева А.А. Слово в лексико-семантической системе языка. – М.: Наука, 1968. – 232 с; Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – С. 140–161; Кубрякова Е.С. Начальные этапы формирования когнитивизма: лингвистический аспект. – М.: Наука, 1994. – 248 с; Арутюнова Н.Д. Логический анализ языка. Лексическое значение. – М.: Наука, 1976. – 384 с; Звегинцев А.В. Семасиология. – М.: Наука, 1962. – 218 с; Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: МГУ, 1956. – 260 с; Шмелёв Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики. – М.: Наука, 1973. – 280 с; Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. – М.: Наука, 1974. – 367 с.

⁶ Lyons J. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 384 p; Lyons J. Linguistic Semantics: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995. – 376 p; Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – 310 p; Cruse D.A. Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – 424 p; Leech G. Semantics. – Harmondsworth: Penguin Books, 1974. – 390 p; Ullmann S. Semantics: An Introduction to the Science of Meaning. – Oxford: Basil Blackwell, 1962. – 350 p.

⁷ Jakobson R. Paradigmatic and Syntagmatic Relations // Jakobson R. Selected Writings. – The Hague: Mouton, 1971. – Vol. 2. – P. 330–339.

⁸ Ravshanov M. Nominativ birliklarning semiologik va leksikografik tavsifi: filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 273 b; Xudoyberdiyeva L.S. O'zbek tilida nominativ birliklarning darajalanishi: filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2004. – 144 b; Rahimov A.A. Ikkilamchi nominativ birliklarni hosil qiluvchi lingvokognitiv vositalar tadqiqi (ingliz va o'zbek tillar misolida): filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2020. – 163 b. Maxmaraimova Sh.T. O'zbek tili metaforalarining antropotsentrik tadqiqi (nominativ aspekt): filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2020. – 280 b.

M.I. Umarxo'jaev va A.E. Mamatov kabi olimlarning ishlarida frazeologik birliklarda bilvosita nominatsiyaning o'рни va ahamiyatini ko'rsatib bergan. Leksemalarning paradigmatic munosabatlari (X.Shamsuddinov)⁹, til birliklarining qatlamlanishi va stilistik bo'yoqdorligi (M.Mamadaliyeva)¹⁰ kabi masalalar ham o'rganilgan.

Frazeologiya tahliliga bag'ishlagan eng salmoqli ishlar V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, N.N.Amosova, I.I. Chernisheva, A.M. Babkin, I.V.Arnold, V.L.Arhangelskiy, B.A. Larin, N.M.Shanskiy kabi tilshunoslarning monografiya hamda dissertatsiyalarida o'z aksini topdi¹¹. O'zbek tilshunosligida dastlab E.D.Polivanov keyinchalik Sh.U.Rahmatullayev, M.E.Umarxo'jayev, A.E.Mamatov, B.Yo'ldoshev¹² olimlar ishlarida frazeologik birliklarning nazariy asoslari, komponent tahlili, frazeologik sinonimlar va ularning struktur-semantik xususiyatlari alohida o'rganilgan.

Mazkur nazariy hamda amaliy izlanishlar tadqiqotimizning amaliy natijalarini olishda tayanch bo'lib xizmat qildi. Xususan, leksikografik tahlilda Samuel Johnson¹³, aka-uka Y.Grimm va V.Grimm, V.I. Dal¹⁴ hamda "O'zbek tilining izohli lug'ati" tajribasi, frazeografik tahlilda esa A.V. Kuninning ingliz frazeologiyasi¹⁵, A.I. Molotkovning rus frazeologiyasi¹⁶ va Sh. Rahmatullayevning o'zbek frazeologiyasiga¹⁷ oid ishlari asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Tadqiqotning metodik asosini M. Umarxo'jayevning "Основы фразеологии"¹⁸ asari tashkil etib, undagi ilmiy-metodik yondashuvlar asosida leksema – leksikografiyaning, frazema esa frazeografiyaning

⁹ Shamsuddinov X. O'zbek tilida so'zlarning funksional-semantik sinonimlari: Filol. fanlari doktori diss. avtoref. – Toshkent, 1999. – B. 24.

¹⁰ Mamadaliyeva M. O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ jihati: filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Namangan, 1997. – 122 b;

¹¹ Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке / Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – С. 140-161; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1986. – 336 с.; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1963. – 208 с.; Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка. – М.: Высшая школа, 1970. – 199 с.; Бабкин А.М. Русская фразеология, ее развитие, источники и лексикографическая разработка. – Л.: Наука, Ленингр. отд-ние, 1970. – 263 с.; Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. Учебник для ин-тов и фак. иностр. яз. - 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Высшая школа, 1986. – 296 с.; Архангельский В.Л. Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. – Ростов: Изд-во РГУ, 1964. – 315 с.; Ларин Б.А. Очерки по фразеологии / Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание (избранные работы). – М.: Просвещение, 1977. – 224 с.; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. Изд. 3-е, испр. и доп. – М.: Высшая школа, 1985. – 160 с.

¹² Рахматуллаев Ш. Некоторые вопросы узбекской фразеологии. – Ташкент: Фан, 1966. – 262 с; Умарходжаев М.И. Основы фразеологии – Ташкент: Фан, 1983. – 132 с; Маматов А.Э. Узбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари: филол. фан. док. ... дис. – Т., 1999. – 316 б; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. дис. ... автореф. – Тошкент, 1993. – 47 б

¹³ Johnson, S. A Dictionary of the English Language: in Two Volumes [Электронный ресурс]. – London: W. Strahan, 1755. – Режим доступа: <https://archive.org/details/dictionaryofengl1755john>

¹⁴ Даль, В. И. Толковый словарь живого великорусского языка: в 4 т. / В. И. Даль. – Санкт-Петербург; Москва: Т-во М. О. Вольф, 1903–1911. – Т. 1: А–З. – XIV с., 1744 стб., VI с., [1] л. портр.

¹⁵ Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – 4-е изд., испр. и доп. – М.: Русский язык, 1984. – 944 с.

¹⁶ Молотков А.И. (ред.). Фразеологический словарь русского языка. – М.: Советская энциклопедия, 1968. – 543 с.

¹⁷ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 64 б.

¹⁸ Умарходжаев М.И. Основы фразеологии. – Ташкент: Фан, 1983. – 136 с.

obyekti sifatida tizimlashtirildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy -tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Til va madaniyat integratsiyasi asosida xorijiy tillar ta'limining barqaror rivojlanish modeli: lingvistik, filologik, lingvodidaktik va raqamli yondashuvlar" yo'nalishida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi leksik hamda frazeologik birliklarining mustaqil til birligi sifatidagi maqomini aniqlash, ularning semantik, funksional va struktur xususiyatlarini tahlil qilish hamda leksikografiya va frazeografiya amaliyotida aks ettirilish prinsiplari asosida ularning tavsifiy va tizimli talqinini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

leksema va frazemaning lingvistik mohiyatini ochib berish, ularning mustaqil til birliklari sifatidagi umumiy va xususiy belgilarini aniqlash hamda til tizimida leksema va frazemalarning o'rni va vazifasini tahlil qilish, ularning sintaktik va semantik faoliyatini taqqoslab o'rganish;

zamonaviy leksikologiya va frazeologiya nazariyalarini tahlil qilish, ularning asosida frazeologik birlik va leksik birliklarning integratsion (o'zaro bog'liq) yondashuvlarini ishlab chiqish;

turli (o'zbek, ingliz, rus, nemis) tillar materiali asosida leksema va frazemaning real qo'llanish holatlarini kuzatish, ularni leksik-funksional mezonlar asosida tasniflash;

leksikografik va frazeografik asarlarda (lug'atlar) leksema va frazemalarning ifodalanish tamoyillarini tahlil qilish, mavjud amaliyotga ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

tadqiqot davomida olingan nazariy va amaliy dalillar asosida leksemani leksikografiya obyekti, frazemaning frazeografiya obyekti maqomida ekanligini asoslab berish.

Tadqiqotning obyektini til tizimidagi mustaqil til birliklari bo'lmish leksemalar va frazemalarni tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti leksema va frazemalarning mustaqil til birligi sifatidagi maqomini belgilovchi leksik-semantik va frazeologik xususiyatlari, ularning lug'aviy tizimdagi (leksikografik va frazeografik) ifoda usullari, tasniflanish tamoyillari va tavsiflash metodlaridir.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvistik tavsiflash, qiyosiy tahlil, leksik-semantik, konseptual, komponent tahlil hamda frazeografik va leksikografik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

leksema va frazemaning mustaqil nominativ til birliklari sifatidagi maqomi kompleks, tizimli va qiyosiy yondashuv asosida asoslab berilgan bo'lib, ularning semantik, struktur, funksional hamda paradigmatik xususiyatlari uzviy bog'liqlikda asoslab berilgan;

an'anaviy binar oppozitsiya (leksema ↔ frazema) yangilangan nazariy paradigma asosida qayta talqin qilinib, bu birliklar o'rtasidagi chegaralar qat'iy emasligi, balki semantik faollik, kontekstual bog'liqlik va vazifasiga

ko'ra uzluksiz gradatsiya tamoyiliga asoslanishi isbotlangan;

leksema va frazemalarning leksikografik hamda frazeografik manbalarda berilish tamoyillari struktur-semantik, funksional va komponent tahlil asosida tizimlashtirilgan hamda ularning differensial va integratsion belgilarini hisobga olgan holda lug'atshunoslik amaliyoti uchun takomillashtirilgan nazariy mezonlar ishlab chiqilgan;

frazeologik birliklarning ikkilamchi nominativ birlik sifatidagi lisoniy maqomi markaz – periferiya modeli asosida yoritilib, frazemalar semantikasida komponentlarning to'liq va qisman semantik zaiflashuv (puchlashish) darajalari frazeologik tizimning ichki iyerarxiyasini belgilovchi muhim omil ekani ilmiy asoslangan;

leksikografiya va frazeografiyaning tarixiy taraqqiyoti Sharq va G'arb lug'atshunoslik an'analari qiyosida tahlil qilinib, o'zbek tilining agglutinativ tabiati, fe'llarning shakl hosil qilish imkoniyatlari va frazemalarning kontekstual xususiyatlarini to'liq aks ettiruvchi zamonaviy lug'at modeli nazariy jihatdan dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

leksema va frazemalarning maqomini aniqlovchi mezonlar asosida lug'aviy birliklarni tasniflash va tavsiflash bo'yicha tavsifiy-mantiqiy model taklif qilindi;

tadqiqotda ajratilgan prototipik va chegaraviy frazeologik birliklar asosida frazeologik lug'atlar uchun tanlov mezonlari va material saralash uslublari ishlab chiqildi;

amaliy lingvistika, tarjimashunoslik, til o'qitish metodikasi sohalarida frazemalar va leksemalarning turli kontekstlarda qo'llanish imkoniyatlarini aniqlovchi real nutqiy misollar bazasi shakllantirildi;

tadqiqot natijalari lug'at tuzuvchilar, tarjimonlar, tilshunos olimlar, til o'qituvchilari uchun amaliy qo'llanma sifatida foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarning ishonchli ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan til birliklari va lug'aviy manbalar tadqiqot predmetiga to'liq muvofiqligi, obyektga tizimli yondashuv hamda qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadi va vazifalariga to'g'ri mos kelganligi bilan ta'minlanadi.

Nazariy fikrlar va xulosalar lingvistik tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tipologik, kognitiv-semantik, frazeografik, prototipik-gradiyent, komponentli tahlil va gender-asosli yondashuvlar asosida ilmiy jihatdan asoslangan.

Shuningdek, tadqiqotda ilgari surilgan xulosalar, tavsiyalar va tasnif mezonlari amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'lib, ular leksikografik va frazeografik ishlanmalar, til o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik sohalarida qo'llanishga tavsiya etiladi. Olingan natijalar vakolatli tashkilotlar bilan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Zamonaviy kognitiv tilshunoslik g'oyalarini o'zbek va rus tillari leksik hamda frazeologik tizimi asosida tatbiq qilish, ayniqsa, frazeologik birliklarning prototipik, gradiyent va semantik-modellashtiruvchi yondashuvlar asosida tahlil etilishi bilan

namoyon bo'ldi. Ushbu yondashuv orqali leksema va frazemaning mustaqil til birligi sifatidagi maqomi, ularning semantik va funksional chegaralari, lug'at tizimidagi aks etish prinsiplari aniqlab berildi. Tadqiqot natijalari tilshunoslikning semasiologiya, kognitologiya, pragmatika, leksikografiya va frazeografiya sohalariga doir muammolarni hal etishda nazariy asos sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati – oliy ta'lim muassasalarining filologiya fakultetlarida o'qitiladigan "Leksikologiya", "Frazeologiya", "Umumiy tilshunoslik", "Qiyosiy-chog'ishtirma tilshunoslik" fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tishda, shuningdek, "Kognitiv tilshunoslik", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kabi zamonaviy yo'nalishlar bo'yicha maxsus kurslarni tashkil qilishda, darslik, o'quv qo'llanma yozish, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlash, rus va o'zbek paremiologik lug'atlarini tuzish kabi ilmiy-amaliy faoliyatda metodik manba sifatida foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Leksema va frazemaning mustaqil til birligi sifatidagi maqomini aniqlashda hamda ularning leksikografik, frazeografik tahlili asosida ishlab chiqilgan metodik va amaliy takliflar:

til birliklarining lug'atlarda aks etish tarixiy an'anasi o'rganilib, ularning leksikografik tasviri lingvistik tahlildan ilgari shakllangan amaliy yondashuvga tayanishini ko'rsatish orqali leksikografiyaning tilshunoslikdagi maqomi yangi nazariy asosda yoritilgan. Xalq ta'limi vazirining 2023-yil 18-maydagi 156-son buyrug'i asosida 2023–2024-yillarda bajarilishi nazarda tutilgan AI-201704-sonli "Umumta'lim muassasalari bitiruvchilarining ona tili (o'zbek tili) fani bo'yicha malakasini baholash hamda 14 ta fandan test tizimini ishlab chiqish" nomli fundamental loyihada foydalanilgan (A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutining 2025-yil 8-avgustdagi №03-16-09-985-son ma'lumotnomasi). Natijada leksema va frazemalarning maqomini aniqlovchi mezonlar asosida lug'aviy birliklarni tasniflash va tavsiflash bo'yicha tavsifiy-mantiqiy model taklif qilindi hamda ajratilgan prototipik va chegaraviy frazeologik birliklar asosida frazeologik lug'atlar uchun tanlov mezonlari va material saralash usullari ishlab chiqildi.

tadqiqotda an'anaviy binar oppozitsiya (leksema – frazema) doirasida qaraladigan yondashuv yangicha nazariy asosda takomillashtirilib, gradient va prototipik yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqildi. Bu orqali ushbu birliklar o'rtasidagi chegaralar qat'iy emas, balki ma'no darajasi va funksional faoliyatga ko'ra uzluksizlik (gradientlik) tamoyiliga asoslanganligi isbotlandi. Ushbu yondashuv ilmiy-tadqiqot va ta'lim sohalarida yangi imkoniyatlarni yaratdi hamda ochib berilgan yangiliklar va ilmiy natijalardan 2023–2024-yillarda bajarilgan I-203-4 raqamli, madaniy-ma'rifiy muassasalar nomoddiy milliy merosni rivojlantirish sho'basi tomonidan o'zbek xalqining boy milliy til an'analari, nomoddiy madaniy

merosi, ijtimoiy qadriyatlarimizning millatlararo munosabatlarni yo'lga qo'yish va aloqalarni mustahkamlash borasida tuzilgan "Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg'unlashtirish" nomli fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 8-avgustdagi №02-15-06-918-son ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy xulosalarning qo'llanilishi, shuningdek, foydalanilgan ilmiy-metodik tavsiyalar loyiha ishlanmalarining takomillashishiga xizmat qildi.

til tizimining mustaqil birliklari sifatida leksema va frazemani nazariy asoslash, ularning tasnifi, semantik-funksional xususiyatlari hamda leksiko-frazeografik tavsif prinsiplari Germaniya Federativ Respublikasining Bremen shahridagi "A&A Ausbildung und Arbeit Plus GmbH" ilmiy-tadqiqot va ta'lim markazida tayyorlangan "World Linguistics" nomli hisobotni lingvistik ma'lumotlar va analitik modellar bilan boyitishga xizmat qildi (Confirmation of Implementation: Ausbildung und Arbeit Plus GmbH, Germany: 10.08.2025). Dissertatsiyada jamlangan va tizimlashtirilgan leksik hamda frazeologik birliklar majmuasi, shuningdek, ularning tahliliga doir metodologik asoslar hisobotni dastlabki lingvistik manbalar bilan boyitib, ilmiy izlanish va ta'lim jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan amaliy misollar va nazariy qarashlarni taqdim etdi (professor John Maer imzosi bilan).

tadqiqotning leksema – leksikografiyaning, frazema – frazeografiyaning ob'ekti maqomida ekanligi haqidagi ilmiy xulosalar va ularning nazariy hamda amaliy jihatdan dalillanishi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan PF-20191258 "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" amaliy loyihasida til birliklarini to'g'ri tasniflash, alohida modullar shaklida ajratib ko'rsatish va ko'p tilli tarjimalarda izchil qo'llash jarayonida tatbiq etilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'MTVning 2025-yil 20-sentabrdagi №01/4-4329-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha ma'lumotlar bazasida leksik birliklar va frazeologik birliklarning alohida ko'rinishda berilishi, tarjimada ekvivalentlik va idiomatik moslikni ta'minlagan hamda foydalanuvchilar uchun qulay qidiruv tizimini yaratishda amaliy ahamiyat kasb etgan.

dissertatsiyaning leksikografik va frazeografik manbalarda leksema va frazemalarni aks ettirish prinsiplari hamda ularning mustaqil til birligi sifatidagi maqomi, milliy-madaniy va lingvokognitiv xususiyatlari haqidagi xulosalari asosida "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi, "O'zbekiston" teleradiokanali tomonidan tayyorlangan "Adabiy jarayon", "Ta'lim va taraqqiyot" radioeshittirishlar ssenariysini tayyorlashda 2024–2025-yillar davomida foydalanildi (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 19-avgustdagi №05-09-1328-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqot xulosalari ilmiy-nazariy ahamiyat bilan birga amaliy jarayonlarda qo'llanilib, ommaviy axborot vositalari mazmunini boyitish va ilmiy g'oyalarni jamoatchilikka yetkazishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 11 ta maqola, ulardan, 9 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 200 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyektini aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tillardagi nomlashning gnoseologik va semioologik aspektlari**" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda, til birliklarining gnoseologik va semiologik jihatlari yoritilib, so'zning asosiy nominativ birlik sifatidagi maqomi va uning xalq ruhiyati hamda madaniyati bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Nomlash jarayonida inson tajribasi, tafakkuri, jamiyat ehtiyoji va til tizimining o'rni alohida ko'rsatib o'tiladi.

So'z qadimdan barcha davrlarda tilshunoslar diqqat markazida bo'lib kelgani, u til dunyosi va tafakkur dunyosining uzviy birligi sifatida namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. So'zlar orqali nafaqat borliq nomlanadi, balki xalqning ruhiyati, milliy madaniyati va ijtimoiy hayoti ham ifodalanadi. Shu bois so'zlar tilning birlamchi nominativ birliklari sifatida o'zining gnoseologik (bilish bilan bog'liq) hamda semiologik (belgi xususiyatiga oid) qirralarini namoyon etadi.

Turli tillar oilalarida so'zning maqomi va uni belgilovchi tamoyillar xilmaxilligi ko'rsatiladi: masalan, german va turkiy tillardagi fleksiya va suffiksatsiya jarayonlari ularni flektiv va agglutinatив turlarga ajratadi. So'z shu bois nafaqat tilning nomlash vositasi, balki tillar tarixi, qarindoshligi va taraqqiyotini ochib beruvchi muhim kalit sifatida qaraladi. V.Humboldt va uning izdoshlari tilni inson tafakkurining ijodiy mahsuli, borliqni shakllantiruvchi fenomen sifatida izohlaydi¹⁹, E.Sepir va B.Uorf nazariyalarida esa til inson dunyoqarashini belgilovchi omil sifatida

¹⁹ Гумбольдт В. Фон. Язык и философия культуры / Ред-я и вст. ст. А.В. Гулыга, Г.В. Рамишвили. А.В. Гулыга. Философская антропология Вильгельма фон Гумбольдта (с.7-25)

ko'rsatiladi²⁰.

Bundan tashqari, xalqlar yashash muhiti va madaniyatining tilga ta'siri ham ko'rsatib berilgan. Masalan, golland tilida baliqchilik bilan bog'liq ko'plab maqollar uchrasa, finlar tilida "Sauna dorixonadan afzal" degan paremiyaning mavjudligi ularning turmush tarzi bilan bog'liq. O'zbek oilalarida esa isiriq o'simligi bilan bog'liq iboralar ("isiriq solmoq") keng tarqalgan. Eskimos tilida qorning turli holatini ifodalovchi ko'plab so'zlarning mavjudligi ham yashash muhitining tildagi in'ikosini ko'rsatadi²¹. Shu bilan birga, barcha xalqlar uchun umumiy bo'lgan tushunchalar ham bor: o'zbek tilidagi "mehmon", rus tilidagi "гость", ingliz tilidagi "guest" kabi so'zlar insoniyat tafakkuridagi umumiy qadriyat – mehmondo'stlikni bildiradi. Demak, so'z xalqning madaniy ruhi, tafakkuri va turmush tarzining bevosita ko'zgusi sifatida namoyon bo'ladi.

Har qanday yangi so'z insonning tajribasi, idroki, tafakkuri hamda jamiyat va til tizimining o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Inson atrof-muhitdagi narsalarni avval sezadi, idrok etadi, ongida tasavvur qiladi va keyin unga nom beradi. Tajriba bu jarayonda bosh omil sifatida ko'rsatiladi, chunki tajribasiz holda yangi so'zning paydo bo'lishi mumkin emas. Masalan, "bo'ri", "o'rmon" yoki "girdob" kabi nomlar insonning bevosita kuzatuv va tajribasi orqali yaratilgan.


Nom berish jarayonida qo'shma so'zlar (ko'zoynak, smartphone), suffiksial qo'shimchalar (mashina → mashinalash), frazeologizmlar (qovun tushirmoq, bookworm), shuningdek, kalkalash va o'zlashmalar keng qo'llaniladi. Jamiyatning ta'siri ham muhim bo'lib, yangi so'z agar umumiy iste'molda qabul qilinmasa, yashab ketmaydi. Masalan, rus tilida uchuvchi uchun taklif etilgan *лётец* so'zi salbiy assotsiatsiyalar sabab qabul qilinmadi, uning o'rniga *лётчик* mustahkamlandi. Ingliz tilida esa *bookworm* so'zi ijobiy qabul qilingan bo'lsa-da, *bookaholic* keng qo'llanilmadi.

Etimologik asoslar ham nomlash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bir xil predmet yoki hayvonga turli tillarda turlicha belgiga qarab nom berilganini ko'ramiz. Masalan, nemischa *bär* (ayiq) – "jigarrang" belgisi asosida, ruscha *заяц* (quyon) – "sakramoq" fe'lidan, vengercha *füles* (quyon) – "quloq"dan, o'zbekcha *quyon* esa "tez yugurmoq, qochmoq" ildizidan kelib chiqqan. Bunday misollar xalqlarning tabiatni idrok etishidagi turfa yondashuvlarini ko'rsatadi.

Ushbu holatlarni quyidagi rasm orqali ko'rishimiz mumkin.

²⁰ Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М., 1993; Уорф Б. Отношение норм поведения и мышления к языку. Наука и языкознание. Лингвистика и логика / Новое в лингвистике. – М., 1960. – С. 135-198.

²¹ Umarxo'jayev M.E. So'z dunyosi – Til dunyosi, Til dunyosi – so'z dunyosi. – Andijon, 2023. – 142 b.



1-rasm

So'zlarning dastlabki ichki shakli vaqt o'tishi bilan o'zgaradi yoki unutiladi. Masalan, rus tilidagi *подснежник* (boychechak) – qor tagidan o'sadigan gul nomidan kelib chiqqan, inglizcha *nice* esa dastlab "ahmoq" ma'nosini bildirgan bo'lsa, hozir "yoqimli" ma'nosida qo'llaniladi. Bu jarayon tilning doimiy rivojlanishi va inson tafakkurining abstraktlashuvi bilan bog'liq. Demak, nomlash hodisasi nafaqat tildagi texnik jarayon, balki inson tafakkuri, jamiyat ehtiyoji va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab lisoniy-falsafiy hodisadir.

Tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlar orasida taqlidiy so'zlar muhim o'rin tutadi. Chunki barcha tillarda hayvon, parrandalar yoki tabiat hodisalari chiqaradigan tovushlarga taqlid qilib yasalgan so'zlar mavjud. Masalan, o'zbek tilida "kishnamoq", "guvillamoq", "sharshara" kabi so'zlar bevosita tovush manbayidan kelib chiqqan. Bu hodisa universalligi bilan ajralib turadi va barcha xalqlarning dastlabki til rivojlanish yo'liga mansub hisoblanadi.

Qiziqarli jihat shundaki, ayrim taqlidiy so'zlar turli tillarda o'xshash shakllarda uchraydi. Masalan, o'zbekcha "chug'urlamoq", ruscha *чирикать*, inglizcha *chirp* – uchulasi ham qushlarning ovozi ifodalaydi. Yoki odamning uxlagandagi tovushi o'zbekchada "hurak otmoq", ruschada *храпеть*, inglizchada *snore*, nemischada *schnarchen* shaklida uchraydi.

Taqlidiy so'zlarning asosiy lingvistik xususiyatlari mavjud: birinchidan, ular fonetik tuzilishida tovushlarning bevosita kodini saqlaydi; ikkinchidan, semantik jihatdan ifodalayotgan tovushga bog'liq bo'ladi; uchinchidan, qo'shimchalar qo'shilib yangi so'zlar yasash imkonini beradi (*g'uv-g'uv* → *guvillamoq*, *miyo-miyo* → *miyovlamoq*). Shu bois ular ko'pincha fe'l yasashda faol ishlatiladi.

Shuningdek, ba'zi tillarda taqlidiy so'z yasash juda keng rivojlangan. Masalan, chuvahs tilida "шән-шән" (oynalarning titrashi), "мәнән" (yomg'ir tomchilashi), "лач-лач" (daryo zarbalari), "машт" (sigirning pishillashi) kabi ko'plab misollar mavjud. Buryat tilida esa "дар-дар" (qarsillash), "пус" (qattiq urilish), "тур" (qasir-qusur ovozi) kabi taqlidiy birliklar ishlatiladi. Bu

misollar tillarning fonetik tizimi va xalqning dunyoqarashiga qarab farq qilishini ko'rsatadi.

So'zlarning semantikasi va struktural xususiyatlari qadimdan Aristotel davridan boshlab turli mezonlar asosida ajratib kelinadi: mustaqil va yordamchi, to'liq ma'noli va nomustaqil, xarakterlovchi va universal belgilar kabi. Bu tasniflar so'zlarning mazmun va funksional xususiyatlaridan kelib chiqadi.

To'liq ma'noli so'zlar asosan nominativ vazifani bajarib, predmetlar, hodisalar, belgi va munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Bu guruhga ot, sifat, fe'l va ravishlar kiradi. Yordamchi so'zlar esa fikrni bog'lash va nutqiy jarayonni tashkil etishda muhimdir. Shuningdek, ko'rsatkich va so'roq olmoshlari, artikl, yuklama kabi birliklar ham nomlash tizimida alohida qatlamni tashkil etadi.

Nomlash jarayonida stilistik bo'yoqli birliklar – sinonimlar, frazemalar, paremiyalar alohida o'rin tutadi. Masalan, o'zbek tilida *ota – dada – padaribuzrukvor*, ingliz tilida *house – home – residence*, rus tilida *дом – изба – дворец* kabi qatorlar mavjud. Ular bir obyektни turli usulda ifodalab, stilistik ma'no yaratadi. Shuningdek, *asalim, jigarim* yoki *Bloody hell, Damn!* kabi emotsional birliklarda stilistik ma'no asosiy semantik yadroni tashkil qiladi.

Metafora obyektlar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib yangi ma'no yaratadi ("*oltin qo'l*" – *mahoratli odam*), metonimiya esa yaqinlik va yondoshlikka tayanadi ("*kitob o'qish*" – *matnni o'qish*). Bu usullar tilning ko'chma ma'nolarini kengaytirib, yangi nominativ imkoniyatlarni ta'minlaydi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab V.V.Vinogradov, A.I.Smirnitskiy, O.S.Axmanova, D.N.Shmelev, Y.D.Apresyan kabi olimlar ikkilamchi nomlash hodisasini atroflicha tadqiq etdilar²². O'zbek tilshunosligida esa M.E.Umarxo'jayevning "Основы фразеологии" asari alohida ahamiyat kasb etadi. Professor frazeologizatsiya jarayonini va frazemalar tarkibida leksik birliklarning "puchlashish" (опустошение) darajasi nazariyasini ishlab chiqdi hamda frazemalarning yadro, markaz va periferiya qatlamlarini ko'rsatib berdi²³.

Bilvosita nomlashda ayrim frazemalar tarkibiy qismlarining asl ma'nosi bilan bog'liq bo'lmaydi. Masalan, o'zbek tilidagi "*qovun tushirmoq*" ("uyatga qolmoq"), rus tilidagi "*он в этом деле собаку съел*" ("bu ishda tajribali"), ingliz tilidagi "*kick the bucket*" ("vafot etmoq") kabi. Ularning frazeologik ma'nosi tarkibidagi so'zlarning lug'aviy ma'nosidan chiqmaydi.

Dissertatsiyaning "**Leksema lingvistik fenomen sifatida**" deb

²² Виноградов В.В. Русский язык: Грамматическое учение о слове. Учебное пособие для вузов / Отв. ред. Г.А.Золотова. – 3-е изд., испр. – М.: Высш. шк., 1986. – 640 с.; Смирницкий А.И. Морфология английского языка. – М.: Изд-во литературы на иностранных языках, 1959. – 456 с.; Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии и лексикографии. – М.: Издательство Московского университета, 1972. – 208 с.; Уфимцева А.А. Семасиология: Проблемы значения слова. – М.: Наука, 1986. – 287 с.; Шмелёв Д.Н. Лексическая система русского языка. – М.: Наука, 1973. – 320 с.; Апресян Ю.Д. Лексическая семантика: Синонимические средства языка. – М.: Наука, 1974. – 344 с.

²³ Умарходжаев М.И. Основы фразеологии. – Ташкент: Фан, 1983. – 132 с.

nomlangan ikkinchi bobida, leksema lingvistik fenomen sifatida o'rganilib, uning semantik va funksional xususiyatlari, nazariy yondashuvlardagi talqinlari hamda til tizimidagi barqaror maqomi ilmiy asosda ochib beriladi.

Turli tilshunoslik maktablari leksemaga har xil yondashuv bildirgan. Masalan, ingliz tilshunosi L.Blumfild uni minimal erkin forma deb izohlaydi, Vebster lug'atida esa u ma'no ifodalovchi nutq tovushlari ketma-ketligi sifatida ko'rsatiladi. Palmer fikricha, leksema to'liq jumla sifatida ishlash imkoniyatiga ega eng kichik birlik bo'lsa, S.Ullmann uni g'oyaning talaffuz yoki yozuv orqali ifodalangan ramzi deb hisoblaydi²⁴. Rus tilshunosi A.I.Smirnitskiy esa leksemani so'zning umumiy tipida ko'rib, uning morfologik va sintaktik o'zgaruvchanligini alohida ta'kidlaydi²⁵. O'zbek tilshunosligida M.E.Umarxo'jayev leksemani til tizimida jamiyat tomonidan tan olingan va lug'atlarda muhrlangan lisoniy birlik sifatida talqin qiladi²⁶.

Leksemaning fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari ham batafsil tahlil qilinadi. Fonetik jihatdan bir xil yozuvga ega, ammo talaffuz farqlari sababli turlicha ma'noga ega bo'lgan leksemalar misol qilib keltiriladi: ingliz tilida *lead* (/li:d/ – yetaklamoq, /led/ – qo'rg'oshin), rus tilida *лук* (piyoz/kamon), o'zbek tilida esa *o't* (o'simlik/olov). Shuningdek, urg'u va intonatsiyaning ma'no hosil qilishdagi roli, tovush moslashuvi jarayonlari, tezkor nutqda yuzaga keladigan assimilyatsiya hodisalari yoritiladi.

Morfologik jihatdan leksema turli morfemalardan tashkil topadi: ildiz, prefiks, suffiks va fleksiyalarning qo'shilishi natijasida yangi leksemalar hosil bo'ladi. Ingliz tilida *un-believe-able*, o'zbek tilida *beboshlik*, rus tilida *переписывать* kabi misollar buni tasdiqlaydi. So'z yasovchi qo'shimchalarning faoliyati keng ko'rsatilib, o'zbek tilidagi *-li, -dor, -siz, -chi, -kor, -mand*, rus tilidagi *-ение*, ingliz tilidagi *-ness* qo'shimchalari tahlil qilinadi. Affiksoidlar va qo'shma leksemalarning ham lug'aviy boylikni kengaytirishdagi o'rni misollar bilan ko'rsatiladi (*ish+xona, taklif+noma; blackboard; самолёт*).

Semantik jihatdan esa leksemaning asosiy xususiyati polisemiya, ya'ni ko'pma'nolilikdir. Har qanday tilning rivojlanish jarayonida leksemalar turli kontekstlarda qo'llanish natijasida yangi ma'nolar kasb etadi. Bu jarayon metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi semantik usullar orqali sodir bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida *og'iz* – odamning og'zi, tandirning og'zi; ingliz tilida *head* – bosh, rahbar, navbatning boshi; rus tilida *ветка* – daraxt shoxi yoki metro yo'nalishi. Shuningdek, omonimiya hodisasi ham alohida ko'rib chiqilib, uni polisemiya bilan farqlash zarurligi ta'kidlanadi.

Paradigmatik munosabat til birliklarining tizim doirasida o'zaro aloqadorligini ifodalaydi hamda ma'no, shakl va funksional jihatdan ularning bir-biriga qiyosan qaralishini taqozo etadi. An'anaviy tilshunoslikda bunday munosabatlarning asosiy turlari sifatida sinonimiya, antonimiya, giponimiya va omonimiya alohida ko'rsatib o'tildi.

²⁴ Pei Mario. Glossary of linguistic terminology. – New York: Columbia UNIVERSITY press, 1966. – 328 p.

²⁵ Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: Изд-во МГУ, 1998. – 260 с.

²⁶ Umarxo'jayev M. Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi. – Andijon, 2010.

Sinonimlar bir-biriga ma'nodosh, ammo qo'llanish doirasi yoki uslubiy xususiyatlari bilan farqlanuvchi leksemalar hisoblanadi. John Lyons ta'kidlaganidek, sinonimik munosabatni qat'iy (*strict*) va yumshoqroq (*looser*) yondashuvlarda talqin qilish mumkin²⁷: birinchi holda leksemalar to'liq ma'no tengligiga ega bo'lsa (*madman – lunatic*), ikkinchi holda esa faqat ma'no jihatidan yaqinlik kuzatiladi (*nice – good, pleasing, fine*). A.A.Reformatskiy sinonimlarni nominativ mohiyati bir xil, ammo stilistik jihatdan farqlanuvchi birliklar sifatida ta'riflaydi²⁸. O'zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev sinonimik munosabatni leksik ma'no, baho semasi va nutqiy qo'llanish doirasi nuqtayi nazaridan izohlaydi²⁹.

Sinonimik munosabatlarning turli ko'rinishlari misollar asosida tahlil qilindi: tub so'zlardan tashkil topgan sinonimlar (*tez – shoshilinch, katta – ulkan*), yasama so'zlar orqali shakllangan sinonimlar (*hisoblamoq – sanamoq, g'azablanmoq – jahli chiqmoq*), qo'shimcha yoki fraza fe'llar yordamida hosil qilingan sinonimlar (*stop – come to a stop, write – write down*), shuningdek, juft so'zlar asosidagi sinonimik birikmalar (*or-nomus, pride and honor; baxt-saodat, happiness and joy*). Nutqiy yumshoqlikni ta'minlovchi sinonimik-evfemistik leksemalarning (masalan, *fat → plus-sized, prison → correctional facility*) nutqdagi funksional o'rni ham ko'rsatib berildi.

Sinonimlarga qarama-qarshi holda antonimik munosabatlar ham paradigmatic munosabatlarning asosiy turini tashkil etadi. John Lyons ta'kidlaganidek, antonimlar ma'nosi jihatidan qarama-qarshi bo'lgan leksemalardir, antonimiya esa so'zlar orasidagi semantik zidlik munosabatini bildiradi³⁰. Antonimik munosabatlarning turlari sifatida mutlaq (darajasiz) antonimlar (*dead – alive*), darajali antonimlar (*hot – cold, big – small*) hamda konvers antonimlar (*buy – sell, parent – child*) ko'rsatib o'tiladi. O'zbek, rus va ingliz tillaridan olingan ot, sifat, fe'l va ravish leksemalari misolida antonimik munosabatlarning turli ko'rinishlari yoritiladi. Shu bilan birga, olmoshlar antonimlik munosabatiga ega emasligi, ular faqat yaqinlik va uzoqlik mezoniga ko'ra farqlanishi alohida qayd etildi.

Shuningdek, ushbu faslda polisemiya va antonimiya o'rtasidagi murakkab aloqadorlik ham tahlil qilinadi. Bir leksemaning turli ma'nolarida turli antonim juftliklari yuzaga kelishi mumkinligi (*light – dark; light – heavy; hard – soft; hard – easy*) ko'rsatib beriladi. Ammo har bir polisemiya holatida antonim bo'lishi shart emasligi, ba'zi ma'nolarda antonim topish mushkul ekani ham misollar bilan isbotlandi.

Paradigmatic munosabatlarning yana bir muhim ko'rinishi giponimiya va gipernimiya hodisasidir. Bu hodisa umumiy va xususiy tushunchalarning leksik jihatdan bog'lanishini ifodalaydi. Masalan, "hayvon" – gipernim, "it", "ot", "sigir" – giponim sifatida til tizimida paradigmatic qatlamni tashkil

²⁷ Lyons J. *Semantics: In 2 vols.* – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 197 p.

²⁸ Реформатский А.А. Введение в языковедение: учебник / А.А.Реформатский; под редакцией В.В.Виноградова. – 5-е изд. – М.: Аспект Пресс, 2014. – С. 53.

²⁹ Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 184 б.

³⁰ Lyons J. *Semantics: In 2 vols.* – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 207 p.

etadi. Shuningdek, tananing qismlari (*head, arm, leg*), kiyim-kechak (*shirt, coat, shoes*), hayvonlar, o'simliklar, sifat va fe'llar bo'yicha leksik-semantik guruhlarning paradigmatic asoslari misollar bilan yoritildi.

Lug'at boyligidagi o'zgarishlar faqatgina ayrim so'zlarning ma'no strukturasi yoki semantik hajmi doirasidagina emas, balki so'zlarning eskirishi, iste'moldan chiqishi, yangi so'zlarning yasalishi, boshqa tillardan o'zlashtirilishi, shuningdek, muayyan sohaga oid leksikaning umumxalq tilini boyitishi orqali ham amalga oshadi. Shu bois, har bir tilning lug'at tarkibi ijtimoiy va hududiy jihatdan tabaqalashadi.

Birinchi qatlam sifatida dialektal farqlanish ko'rsatib o'tiladi. Dialektizmlar leksik, grammatik va fonetik turlarga bo'linadi. Leksik dialektizmlar o'zbek tilida *narvon-shoti, lagan-tovoq* kabi so'zlar misolida, ingliz tilida esa Britaniya va Amerika variantlaridagi farqlar (*football-soccer, trousers-pants, lift-elevator*) misolida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi qatlam sifatida fan-texnika va kasb-hunarga oid terminologik qatlam ko'rib chiqiladi. Bu qatlam tilning ilmiy-texnik taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, zamonaviy korpus tadqiqotlari buni yaqqol isbotlab bermoqda. Masalan, *neurology, hematology, dermatology* kabi atamalar tibbiyot terminologiyasiga mansub bo'lsa, *artificial intelligence, artificial life* kabi terminlar zamonaviy texnologiyalar va axborot tizimlari bilan bog'liq.

Uchinchi qatlamni jargon va slenglar tashkil etadi. Slenglar asosan metafora, assotsiatsiya va qisqartirish asosida yaratiladi. Ingliz tilida *grub* (ovqat), *greenbacks* (pul), *bring home the bacon* (moliyaviy farovonlik) kabi slenglar qo'llanadi. O'zbek tilida esa *archa* (militsiya), *ko'k* (dollar), *ilon* (zaharli inson) kabi misollar mavjud. Slenglar tilning norasmiy qatlamini boyitib, nutqqa obrazlilik va emotsionallik olib kiradi.

To'rtinchi qatlam – arxaizmlar va neologizmlardir. Arxaik leksemalar tilning faol qatlamidan chiqib ketgan yoki faqat badiiy uslubda uchraydigan so'zlardir (*ulus, tilmoch, forthwith, hither*). Neologizmlar esa davr talabi bilan yaratilgan yangi so'zlar bo'lib, ular ko'pincha texnologik va ijtimoiy o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi. Masalan, *bitcoin, selfie, lockdown, influencer, zombombing* kabi so'zlar global jarayonlar ta'sirida ingliz tilida shakllangan yangi leksemalardir.

Bundan tashqari, okkazonal so'zlar ham til taraqqiyotining muhim qismi hisoblanadi. Ular dastlab muallif yoki adib nutqida yaratiladi va vaqt o'tishi bilan umumtil boyligiga qo'shilishi mumkin. Masalan, Shekspir asarlarida yaratilgan *pajock, outvenom* kabi so'zlar shaxsiy nutqiy yangilik bo'lib, keyinchalik lug'at tarkibida mustahkam o'rin egallagan.

Leksik qatlamlanishning yana bir muhim xususiyati – o'zlashma so'zlardir. Har bir til boshqa tillardan so'zlarni qabul qiladi. O'zbek tilida arabcha (*aziz, harom*), forsha (*chashma, darvoza*), ruscha (*stol, pol, salfetka*) o'zlashmalar mavjud. Ingliz tilida esa fransuz, lotin, yunon, ispan va yapon tillaridan kirib kelgan ko'plab leksemalar bor (*croissant, agenda, telephone, karaoke, sushi*).

Leksemalar tilning milliy-madaniy mazmunini ifodalovchi va xalqning

ma'naviy merosini saqlovchi betakror birliklardir. Ular nafaqat kommunikativ ehtiyojni qondiradi, balki etnosning dunyoqarashi, qadriyatlarini, urf-odatlarini va madaniy kodini ham o'zida mujassam etadi. Shu bois leksemalar lingvistik fenomen sifatida lingvokulturologik tadqiqotlarning markaziy obyektiga aylanadi.

Milliy madaniy belgi sifatida ayrim leksemalar faqatgina muayyan xalqning tajribasida mavjud bo'ladi va boshqa til vakillari uchun noma'lum bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida "sizlab" murojaat qilish odobi, hurmat va izzatga oid ma'nolarni kuchaytiruvchi "siz" olmoshining qo'llanishi ingliz tilida mavjud emas. Ingliz tilidagi you olmoshi ham "sen", ham "siz" ma'nosini ifodalasa-da, u o'zbeklardagi hurmat ma'nosini to'la qamrab olmaydi.

Shuningdek, milliy taomlar (palov, manti, sumalak – pancake, pudding, fish and chips), milliy kiyimlar (do'ppi, chopon – tweed jacket, bowler hat), milliy urf-odatlar (beshik to'yi, sunnat to'yi – baby shower, christening), milliy o'yinlar (kurash, ko'pkari – rugby, cricket), milliy cholg'u asboblari (dutor, doira, karnay – bagpipe, piano, guitar) ham lingvokulturologik jihatdan millatning turmush tarzi va qadriyatlarini ifodalovchi leksemalardir.

Toponimlar ham xalq tarixiy xotirasini mujassamlashtiruvchi lingvokulturologik birliklar sanaladi. Masalan, Samarqand so'zi so'g'd tilida "tosh shahar" ma'nosini bildirsa³¹, ingliz tilida Cambridge "Kem daryosi ustidagi ko'priki" ma'nosini anglatadi³². Toponimlar etnosning tarixiy jarayonlari, yashash joylari, shaxs nomlari, o'simlik va hayvonot olami bilan bog'liq tasavvurlarini ham ifodalaydi: Turkiston, Bodomzor, Paxtakor kabi o'zbekcha; Brighton, Edinburgh, Greenfield kabi inglizcha; Irkutsk, Donetsk kabi ruscha nomlar buni tasdiqlaydi.

Har bir leksema va uning leksik-semantik varianti o'zining murakkab tuzilishi bilan ajralib turadi. So'zlarning ma'nosi faqatgina denotativ mazmun bilan chegaralanib qolmay, balki qo'shimcha – konnotativ ma'nolar bilan ham boyiydi. Konnotatsiya tarkibida emotsional, baholovchi, ekspressiv va stilistik komponentlar mavjud bo'lib, ular birgalikda yoki alohida holda namoyon bo'lishi mumkin.

Emotsional ma'no so'zga inson his-tuyg'ularini qo'shib beradi: quvonch, muhabbat kabi ijobiy, yoki nafrat, g'azab kabi salbiy mazmunlarni ifodalaydi. Ba'zan u predmetli-logik ma'nodan kelib chiqsa-da, so'zning umumiy semantik qiyofasini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *dove* (kabutar) va *love* (sevgi) so'zlari turli denotativ ma'nolarga ega bo'lsa-da, erkalash va iltifot kontekstida sinonimik yaqinlik kasb etadi. O'zbek tilida ham bolani erkalash maqsadida hayvon bolalariga oid leksemalar (*toychoq*, *bo'talog'im*, *qo'zichog'im*) ishlatiladi.

Baholovchi komponent esa so'zga ijobiy yoki salbiy munosabat

³¹ Samarqand tarixi. Manba: <https://uzbekistan.travel/uz/o/samarqand-tarixi/> (murojaat sanasi: 06.06.2025).

³² Johnson, Ben. The History of Liverpool, England. Historic UK. Available at: <https://www.historic-uk.com/HistoryMagazine/DestinationsUK/Liverpool/> (accessed: 31 October 2025).

yuklaydi. Bu hodisa tilning ichki imkoniyatlari va affikslar orqali ham shakllanadi. Ingliz tilida *childish* salbiy ma'noni bildirsa, *childlike* ijobiy konnotatsiyani beradi. O'zbek tilida ham "-mand" suffiksi turli vaziyatlarda turlicha baho mazmunini yaratadi: *davlatmand*, *hunarmand* (ijobiy), *kasalmand* (salbiy).

Ekspressivlik so'zning ta'sirchanlik darajasini oshiradi. Bu komponent odatda kuchaytiruvchi birliklar (*extremely, absolutely, entirely*) yoki obrazli ta'riflarda namoyon bo'ladi. O'zbek tilidagi *sherkelbat* leksemasi insonning kuch-qudratini obrazli shaklda ifodalab, nutqqa kuchli ekspressiv bo'yoq qo'shadi. Ekspressivlik har doim ham emotsionallikni bildiravermaydi. Masalan, Hemingueyning *A Clean, Well-Lighted Place* hikoyasida uchraydigan *nothing* so'zi qahramonning iztirobini kuchli tasvirlasa-da, unda aniq hissiy munosabat emas, balki ta'sirchanlik ustuvor bo'ladi³³.

Til birliklarining stilistik bo'yoqdorligi ularning funksional uslublarda qo'llanishini ham belgilaydi. Har bir uslubning o'ziga xos leksemalari mavjud bo'lib, ular mazkur uslub doirasida ijtimoiy ehtiyojni qondiradi.

Ilmiy ishning "**Frazemalarning til birligi maqomi xususida**" nomli uchinchi bobida, frazemalarning morfologik, sintaktik, variantli, struktur-semantik va orfografik ko'rsatkichlari leksemalardan farqlanadigan jihatlar sifatida ko'rsatiladi. Shuningdek, frazemalarning paradigmatic va sintagmatik aloqalari, ko'pma'nolilik hamda kontekstga bog'liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda binar oppozitsiya usuli orqali frazema va leksemaning umumiy hamda farqli tomonlari ochib berilib, frazemalarning til tizimidagi maqomi nazariy va amaliy jihatdan asoslab beriladi.

Ushbu bobning birinchi fasli "*Frazemalar mustaqil til birligi*" deb nomlangan bo'lib, frazemalarning so'zdan farqli holda mustaqil til birligi sifatidagi o'rni asoslanadi. So'z milliy-madaniy belgilarni ifodalovchi asosiy til birligi bo'lsa-da, barcha mazmuniy bo'shliqlarni to'liq qamrab ololmaydi. Shu bois frazemalar – turg'un birikmalar, maqol va matallar – tilning semantik imkoniyatlarini kengaytiruvchi qadimiy usul sifatida shakllangan.

Bugungi kunda frazemalar G'arb va Sharq tilshunosligida turlicha terminlar bilan ataladi: rus tilida "frazeologizm", ingliz tilida "set phrase", fransuz va nemis tillarida "phraseme". Tadqiqot doirasida "frazema" atamasi maqbul deb topilib, unga quyidagicha ta'rif beriladi: frazeologik birlik – tarkibiy qismlari alohida yozilsa-da, ma'no jihatidan ajralmas bo'lgan, tayyor holda qo'llanadigan, emotsional-ekspressiv bo'yoqli, barqaror so'z birikmasidir.

Frazeologik birliklarning asosiy xususiyati ularning ajralgan shaklda tashkil topishi bilan belgilanadi. Bu mezon ularni so'zlardan va boshqa yaqin birliklardan farqlash imkonini beradi. A.I.Smurnitskiy ushbu tushunchani ilmiy muomalaga kiritib, til birliklarini ajralgan va yaxlit shakllarga bo'lish orqali frazeologizmlarning tabiatini aniqlashga xizmat qilgan.

³³ Hemingway E. *A Clean, Well-Lighted Place* // Hemingway E. *The Short Stories of Ernest Hemingway*. – New York: Charles Scribner's Sons, 1938. – P. 379-385.

Frazemalar tarkibida har bir komponent mustaqil grammatik shakllarga ega bo'lsa-da, ular birgalikda butunlay yangi, ko'chma ma'no hosil qiladi. Masalan, ingliz tilidagi *blow off steam*, o'zbek tilidagi *boshi osmonga yetmoq* yoki rus tilidagi *ВЗЯТЬ СВОЁ*. Bu holatda alohida so'zlar grammatik o'zgarishi mumkin, biroq umumiy frazeologik ma'no buzilmaydi.

A.V. Kunin ushbu yondashuvni kengaytirib, variantli ajralganlik tushunchasini ilgari surgan. Unga ko'ra, frazeologik birliklar morfologik, sintaktik, variantli va struktur-semantik ko'rsatkichlar orqali ajraladi:

- Morfologik – birlik tarkibidagi so'zlarning grammatik shakllarda o'zgarishi (masalan, *to spill the beans – He spilled the beans*).

- Sintaktik – frazemaning turli sintaktik vaziyatlarda ishlatilishi (masalan, *to turn a blind eye – A blind eye was turned*).

- Variantli – bir birlikning turli sinonimik yoki shakliy variantlarda qo'llanishi (*burn your bridges – burn your boats*).

- Struktur-semantik – frazemaning predikativ, ya'ni gap shaklida ifodalanishi (*the cat is out of the bag*).

- Orfografik va aksentli – yozuv va talaffuzdagi tafovutlar (*be a shoo-in – be a shoe-in*).

N.N.Amosova esa frazeologik birliklarning ayrim hollarda okkazonal ajralganlik belgilariga ega bo'lishini ta'kidlaydi³⁴. Masalan, *like clockwork* iborasi struktur-semantik jihatdan ajralgan bo'lsa-da, murakkab so'z sifatida tasniflanmaydi. Shu bilan birga, *bread-and-butter* yoki *hide-and-seek* kabi birikmalar esa yaxlit shaklda bo'lib, murakkab so'zlarga yaqinlashadi.

Til tizimidagi frazemalar ham so'zlar kabi sintagmatik va paradigmatic munosabatlarga kirishishi yoritiladi. Sintagmatik munosabat frazemalarning nutqdagi ketma-ketlik asosida qo'llanishini bildirsa, paradigmatic munosabat ularning boshqa birliklar bilan tanlanish va almashinuv imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Paradigmatic munosabatlarda frazemalar omonimiya, sinonimiya va antonimiya hodisalari orqali o'zaro bog'lanadi. Omonimik frazemalar shaklan bir xil bo'lsa-da, turli ma'nolarni anglatadi (*намылить голову – “boshini sovunlamoq” / “tanbeh bermoq”*). Sinonimik frazemalar bir tushunchani ifodalab, turli uslubiy qatlamlarga mansub bo'ladi (*olamdan o'tmoq – vafot etmoq – yer tishlamoq*). Antonimik frazemalar esa qarama-qarshi ma'nolarni ifodalaydi (*ichi qora – yuragi toza, early bird – night owl*).

Sintagmatik munosabatlarda frazemalar boshqa birliklar bilan qo'shilish imkoniyatiga ega bo'lib, ularning semantik valentligini belgilaydi. Ba'zi frazemalar keng birikish xususiyatiga ega bo'lsa (*boy bermoq – vaqt, imkon, sir bilan*), boshqalari faqat cheklangan doirada qo'llanadi (*run like the wind* faqat *run* fe'li bilan).

Polisemiya frazemalarning muhim jihatlaridan biridir. Masalan, *tili chiqdi* frazemasini “gapira boshladi”, “indamay yurgan kishi so'zladi” yoki “aytadigan bo'ldi” ma'nolarini bildirishi mumkin. Bunday ko'pma'nolilik har

³⁴ Амосова Н.Н. Фраземы как разновидность фразеологических единиц английского языка // Проблемы фразеологии: Исследования и материалы / Под ред. А.М. Бабкина. – М.-Л., 1964.

doim kontekst orqali aniqlanadi.

Dissertatsiyada, shuningdek, M.E. Umarxo'jayev tomonidan ilgari surilgan markaz–periferiya konsepsiyasi asosida frazeologik birliklarning yadro, markaz va periferiya qatlamlariga ajratilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur yondashuvda frazeologik birliklarning ichki tuzilishini aniqlashda komponentlarning semantik "puchlashish" darajasi hamda semantik integratsiya ko'rsatkichi asosiy mezon sifatida qaraladi³⁵.

Puchlashish (semantik opustoshlenie) jarayoni frazeologik birlik tarkibidagi alohida komponentlarning dastlabki lug'aviy ma'nosining zaiflashishi yoki butunlay yo'qolishi bilan xarakterlanadi. Natijada komponentlar o'z mustaqil semantik qiymatini yo'qotib, umumiy frazeologik ma'no tarkibiga singib ketadi. Bu jarayon frazemaning semantik yaxlitligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Masalan, "boshi osmonga yetmoq" yoki "kick the bucket" kabi birliklarda tarkibiy qismlarining to'g'ridan-to'g'ri ma'nosi umumiy frazeologik ma'noga to'liq mos kelmaydi va ular semantik jihatdan "puchlashgan" holda yagona obrazli ma'noni ifodalaydi.

Puchlashish darajasiga ko'ra frazeologik birliklar uch qatlamga ajratiladi: yadro, markaz va periferiya. Yadro qatlamiga kiruvchi birliklarda komponentlar to'liq puchlashgan bo'lib, ular faqat frazeologik ma'noda qo'llanadi. Markaziy qatlamda esa komponentlar o'z dastlabki ma'nosi bilan qisman bog'liqligini saqlab qoladi va frazeologik ma'no bilan prototipik aloqaga ega bo'ladi. Periferik qatlamdagi birliklarda esa komponentlarning lug'aviy ma'nosi nisbatan saqlanib qoladi va semantik integratsiya darajasi past bo'ladi.

Dissertatsiyada frazema va leksemaning o'zaro munosabati binar oppozitsiya tamoyili asosida tahlil qilingan. An'anaviy yondashuvda so'z butun shaklli, leksik ma'noga ega bo'lgan birlik sifatida, frazema esa ajratilgan shaklli, ko'chma frazeologik ma'noga ega bo'lgan birlik sifatida qarama-qarshi qo'yiladi. Shakl, ma'no, yasalish, erkin qo'llanish va barqarorlik kabi belgilar bo'yicha ularning farqli jihatlari ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga, zamonaviy tilshunoslikda ushbu qarama-qarshilik qat'iy chegaralar asosida emas, balki gradiyent va prototipik yondashuv asosida ko'rilishi maqsadga muvofiq ekani ta'kidlanadi. Ya'ni, so'z va frazema o'rtasidagi farqlar keskin emas, balki darajaviy o'tishlar orqali namoyon bo'ladi. Bu yondashuvda frazemalar turli tillardan olingan misollar asosida ballik ko'rsatkichlar orqali baholangan bo'lib, ular shakl butunligi, semantik mustaqillik, kontekstdan ajralish darajasi va stilistik ekspressivlik kabi mezonlar bo'yicha tahlil qilinadi. Shu tarzda, frazema va leksemaning umumiy hamda farqli jihatlari yanada aniqroq asoslab berilgan.

Zamonaviy tilshunoslikda, ayniqsa, kognitiv va korpus tilshunosligi rivoji bilan birga, til birliklarining bu tasnifi ko'p bosqichli, darajaviy va prototipik yondashuv bilan kengaytirildi. Ya'ni, har bir til birligi to'liq so'z yoki to'liq frazema bo'lishi shart emas, ular o'rtasida silliq o'tishlar, gradiyent

³⁵ Умарходжаев М.Э. Центр и периферия во фразеологии // Вопросы языкознания. – 1979. – № 5.

xususiyatlar mavjud. Shunday ekan, klassik binar oppozitsiya tamoyili zamonaviylashtirilgan holda, har bir mezon bo'yicha darajaviy farqlanish (gradiyent) va prototipik markaz–chegara modeli asosida taqqoslashga harakat qildik.

Klassik binar oppozitsiyani zamonaviylashtirish (gradiyent va prototip asosida)

N ^o	Tahlil mezonlari	So'z (leksema)	Frazeologik birlik (FE)	Gradiyent / Prototipik yondashuv
1	Shaklning butunligi	Yig'ma, morfologik yaxlit	Ajratilgan (so'z birikmasidan iborat)	Formal yaxlitlik shkalasi: 1.0 (so'z), 0.5–0.7 (frazeologizm) – Ko'pchilik frazemalar ajratilgan, lekin semantik jihatdan yaxlit
2	Ma'no xususiyati	Leksik ma'no	Frazeologik (ko'chma) ma'no	Semantik metaforiklik gradiyenti: So'z – 0–0.2, FE – 0.8–1.0
3	Shakllanish modeli (yasalish)	Morfemalar orqali yoki bitta morfema	So'zlar birikmasidan	Strukturaviy soddalik gradiyenti: So'z – 1.0 (eng soddasi), FE – 0.5
4	Erkin so'z birikish	Erkin birikadi	Tor birikish (tayyor birlik)	Sintaktik moslashuv darajasi: So'z – 1.0 (erkin), FE – 0.2–0.3
5	Kontekstga bog'liqlik	Kontekstsiz ham tushuniladi	Ko'pincha kontekstda ochiladi	Kontekstdan mustaqillik darajasi: So'z – 1.0, FE – 0.5–0.8 (prototip frazemalar – yuqori darajada tushunarli)
6	Barqarorlik	Erkin almashadi	Barqaror (o'zgarmas shakl)	Barqarorlik indeksi: So'z – 0.3, FE – 0.9
7	Variantlilik	Leksik jihatdan oson o'zgaradi	Tarkibiy o'zgarishga chidamsiz	Variantlilik indeksi: So'z – 1.0, FE – 0.2–0.4
8	Semantik modelga moslik	Strukturaviy-semantik modelga mos	Modeldan chetga chiqqan	Kompozitsionlik darajasi: So'z – 1.0, FE – 0.3–0.5
9	Stilistik belgi	Neytral	Ekspressiv, obrazli	Uslubiy ekspressivlik gradiyenti: So'z – 0–0.2, FE – 0.8–1.0

Yuqorida keltirilgan jadvalda har bir ko'rsatkich 0 dan 1 gacha ball bilan baholangan, bu til birliklarining qanchalik frazeologik yoki qanchalik leksik birlik ekanini aniqlash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Leksema leksikografiyaning, frazema esa frazeografiyaning obyekt sifatida”** deb nomlanib, leksema va frazemalarning lug'atshunoslikdagi o'rni hamda ularni qayd etish metodologiyasi yoritiladi. Leksikografiya asosan so'zlarni, ya'ni leksemalarni o'rganadi va ularning ma'nosi, grammatik shakllari hamda uslubiy xususiyatlarini izohlash bilan shug'ullanadi. Shu boisdan, leksema lug'at maqolasining asosiy obyektini tashkil etadi. Frazeografiya esa

frazeologik birliklarni – frazemalarni o‘z tadqiqi doirasiga oladi.

Avvalambor, leksema tilning asosiy nomlovchi va ma‘no tashuvchi birligi sifatida har bir lug‘atning markaziy obyekti hisoblanadi. Har qanday so‘z lug‘atlar orqali tarixiy yodgorlik sifatida saqlanib qoladi va milliy tilning taraqqiyot darajasini belgilashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Amaliy lug‘atshunoslik arab, fors va turkiy tillar asosida VIII–X asrlardan boshlab rivojlangan. Xalil ibn Ahmadning “Kitob al-ayn”, Ibn Manzurning “Lison al-Arab”, al-Javhariyning “As-Sihoh” lug‘atlari arab tilshunosligida muhim manbalar bo‘lsa, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy tillarning birinchi ilmiy lug‘ati sifatida alohida ahamiyat kasb etgan.

Yevropada esa lug‘atchilik XVII–XIX asrlarda bosmaxonaning yaratilishi bilan yangi bosqichga ko‘tarilgan. Samuel Jonsonning “A Dictionary of the English Language”, aka-uka Grimmilar tomonidan yaratilgan “Deutsches Wörterbuch” singari asarlar milliy tilni me‘yorlashtirish va standartlashtirishga xizmat qilgan. Shu davrda ikki va ko‘p tilli lug‘atlar, shuningdek, izohli lug‘atlar keng tarqalgan.

O‘zbek tilida lug‘atshunoslik shakllanishida rus tilidagi an‘anaviy tamoyillar sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. XX asr boshlaridan boshlab ikki tilli rus-o‘zbek va o‘zbek-rus lug‘atlari tuzila boshlagan. Yozuvlarning arab, lotin va kirill grafikalariga almashishi leksemalarni orfoepik, semantik va grammatik jihatdan me‘yorlashtirishda qiyinchiliklar tug‘dirgan bo‘lsa-da, bu jarayon milliy leksikografiya taraqqiyotini ta‘minlagan. O‘zbek tilining birinchi izohli lug‘atining XX asrning ikkinchi yarmida chop etilishi esa milliy tilning ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlashda muhim qadam bo‘lgan.

Eng avvalo, “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”ning mazmun-mohiyati, ahamiyatini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Lug‘at o‘zbek frazeografiyasida ilk bora izohli frazeologik lug‘at sifatida e‘tirof etiladi. Unda o‘zbek tilining mingdan ortiq frazemalariga semantik, grammatik hamda ularning nutqda qo‘llanilish xususiyatlari, stilistik belgilariga izoh berilgan. Shu bilan birga, lug‘atda gap shaklidagi maqollar tahlili qilinmagan. Lug‘atning quyidagi e‘tiborga molik jihatlarini ko‘rib chiqsak:

Birinchidan, lug‘at o‘zbek frazeografiyasi tarixida tom ma‘noda frazeologik lug‘at bo‘lib, o‘zidan avval mavjud bo‘lgan iboralar to‘plamlaridan ilmiyligi bilan jiddiy farq qiladi.

Ikkinchidan, lug‘atga olingan frazemalar amaldagi leksemalar kabi “teng huquqli” o‘zining shakl-shamoyiliga, ma‘no-mazmuniga ega bo‘lgan mustaqil til birligi sifatida ta‘riflanadi, tavsiflanadi.

Uchinchidan, frazemalarning ma‘no jihatdan leksemalardan farqlanishi to‘g‘risida Sh.Rahmatullayev shunday yozadi: “Tarkibli morfemaning, leksemaning ma‘nosi odatda uni tashkil qiluvchi til birliklariga xos ma‘nolarining yig‘indisi sifatida gavdalanadi, qismlar ma‘nosi asosida butunning ma‘nosi tushuniladi³⁶”.

Frazemalar ma‘nosi haqida esa davom etib, “Ibora ham tarkibli til birligi, lekin uning ma‘nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma‘nolarning oddiy

³⁶ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 4.

yig'indisiga teng bo'lmaydi. Iboraga xos ma'no tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga nisbatan mahraj ma'no, ustama ma'no sifatida gavdalanadi, bu ma'no ibora tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga suyanmasligi mumkin. Iboraning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmasligi, shular ustiga qurilgan yangi bir ma'no bo'lishi sababli, iboralarda go'yo ifoda plani bilan mazmun plani orasida qandaydir uzilish sodir bo'ladi. Xususiy (qismlarga xos) ma'nolar umumiy (iboradan anglashiladigan) ma'noni to'g'ridan to'g'ri izohlab turmaydi, shu sababli iboralarda ifoda plani bilan mazmun plani orasidagi bog'lanish shartlilik kashf etadi"³⁷, deydi olim. Ushbu yo'llar bilan yaxlit holda paydo bo'ladigan ma'no frazeologik ma'no sifatida e'tirof etiladi. Ularning ma'no adadi ikki, uch, hatto besh ma'noda ham bo'lishi mumkin. Masalan, boshiga qilich kelsa ham iborasida bitta ma'noni, Aqli yetadi iborasi ikkita ma'noni, bo'yniga qo'ymoq uchta ma'noni, qo'lga olmoq iborasi esa to'rtta ma'noni anglatadi. (Lug'atga qarang)³⁸.

To'rtinchidan, lug'atning ilmiyligi unga kiritilgan frazeologik sinonimlarni: jonini hovuchlab → yuragini hovuchlab, ipidan ignasigacha → miridan sirigacha → qilidan quyrug'igacha; frazeologik antonimlar: yerga urmoq ↔ ko'kka ko'tarmoq, yuragi keng ↔ yuragi tor; frazeologik omonimlar qo'l ko'tarmoq I – qo'l ko'tarmoq II kabi frazemalarning semantik paradigmatlari chuqur o'rganilgan va lug'atga xatlangan. Bulardan tashqari birinchi marotaba lug'at muallifi frazeologik paronimlarga ta'rif bergan. "Ba'zi iboralar", – deb yozadi Sh.Rahmatullayev, – "o'zaro leksik tarkibidagi bir so'z-komponentlar ham bir-biriga o'xshash bo'ladi. Ana shunday shakily yaqinlikka ega ikki iboraga *frazeologik paronimlar* deyiladi." (Ta'kid bizniki). Masalan, yetti uxlab tushiga kirmaslik va yetti uxlab tushida ko'rmaslik yoki yuragi tars yorilib ketayozdi va yuragi qoq yorilayozdi.

Beshinchidan, frazeologik lug'atlar tajribasida iboralarning grammatik tabiatini yoritgan lug'atlardan biri Sh.Rahmatullayevning lug'ati hisoblanadi. Biz oldingi boblarimizda frazemaning kelib chiqishiga, uning semantik tabiatiga, tilning mustaqil ma'no tashuvchi nomenklaturasida bor ekanligiga asosiy urg'u bergan edik. Lekin iboralarni ichki sintaktik qurilishi, so'zlarning sintaktik bog'lanish mohiyatiga ko'ra birikmaga yoki gapga teng bo'lishligi hamda iboralarnig paradigmatik turlanishiga kam e'tibor qaratgan edik. Zero "Iboralarning asosiy qismini *fe'l frazeologik birliklar* tashkil qiladi"³⁹. (Ta'kid bizniki). Fe'l iboralarning ichki sintaktik qurilishi birikmaga teng bo'lsa, bunday fe'l ibora tuslanadi: bosh egdim, bosh egding kabi. Agar iboraning ichki sintaktik qurilishi gapga teng bo'lsa, bunday fe'l ibora tuslana olmaydi, doim II shaxs formasida turadi (ibora tarkibida qatnashayotgan ega shuni talab qiladi). Masalan, ko'z tegdi iborasini tuslab bo'lmaydi"⁴⁰.

³⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 4.

³⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 5.

³⁹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б.

11.

⁴⁰ O'sha yerda.

Oltinchidan, iboralarning sintaktik qurshovi va ularning variantlari masalasining yechimi frazemaning lisoniy maqomini, uning o'zgarma komponentini aniqlashda ahamiyatli hisoblanadi. Chunki qator lug'atlarda bu masala jiddiy qaralmaydi. Ba'zi o'rinlarda noto'g'ri xatlangan qurshov-so'zlar frazemaning ma'no mohiyatiga katta ta'sir o'tkazadi. Bunga misol tariqasida rus frazeologik iboralarning qurshovi masalasini o'rgangan M.T.Tagiyev shunday misol keltiradi. Rus tilida "каши просят" iborasi mavjud bo'lib, agarda biz iborani oldi qismiga "дети" so'zini qo'shib ishlatgan erkin so'z birikmasi sifatida ishlatamiz, agarda "ботинки" so'zini qo'shsak u frazemaga aylanadi, ya'ni "botinka ta'mirga muhtoj" ma'nosida⁴¹.

Frazemalarning turli variantlari ham fonema, leksemalar variantlari kabi bir qancha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bu masalaning yechimi ham frazema statusi bilan bog'liq. Lingvistik nuqtayi nazardan frazemalarning variantlilik tabiati alohida lisoniy tadqiqot qilishni talab etadi. Chunki amaliy jihatdan bu masalaga bir qator lug'atlar, jumladan, Sh.Rahmatullayevning lug'ati katta e'tibor qaratishga qaramasdan, frazemaning variant-turlari keng miqyosda ta'riflanmagan, tavsiflanmagan. Bu masalaning yechimi qanchalik leksikografiya va frazeografiya uchun ahamiyatli ekanligi kunday ravshan. Mustaqil ma'noga ega frazema bilan uning variant orasidagi semantik, funksional vazifasi umumiyligi yoki farqi ularning alohida bir nomenklatura (birlik) sifatida lug'atda kodlashtirishga asos bo'lishligi talab etiladi. "Frazeologik birlik bir variantli yoki ko'p variantli bo'ladi", – deb yozadi Sh.Rahmatullayev "bir variantli iboralarda shu variantning o'zi vokabulasi sifatida keltiriladi. Ko'p variantli iboralarda bir variant tayanch variant sifatida tanlanadi. Iboraga izohlar shu tayanch variant sifatida beriladi. Tayanch variantni belgilashda to'plangan faktik material asosga olinadi: a) nutqda eng ko'p uchragan, b) umumxalq tiliga mansub, d) tarkib jihatdan eng to'liq variant tayanch variant deb belgilanadi"⁴². Lug'at va vokabulasi sifatida tayanch variant keltirilib boshqa (notayanch) variantlar lug'at maqolachasi ichida frazeologik ma'no ta'rifidan keyin beriladi. Misol uchun: azob chekmoq, qiynalmoq varianti: azobini tortmoq, tortgan azobi kabilar.

Yettinchidan, lug'at maqolachasi tarkibida fe'l iboralarning shakli ichki sintaktik qurilish asosida belgilangan, ya'ni frazema: 1) birikmaga teng bo'lsa – moq shaklida kiritilgan, masalan bosh ko'tarmoq; 2) agarda gapga teng bo'lsa, yaqin o'tgan zamonning uchinchi shaxs shaklida olingan: boshi shishdi⁴³.

Bulardan tashqari lug'atda frazemalarning to'liq ma'nosini ochishga xizmat qiluvchi kim, nima, kimning kabi olmoshlarni frazemaning qurshovida qo'llanishi uning ma'no-mazmunini, funksional xususiyatlarini

⁴¹ Тагиев М.Т. Фраzeологическое окружение как проблема лексикографии // Материалы IX координационного совета по вопросам фразеологии. – Баку, 1964. – С. 5-51.

⁴² Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б.

11.

⁴³ Ko'rsatilgan manba.

ochib beradi. Masalan, oyoq osti bo'lmoq. 1. Nima paymol bo'lmoq, tahqirlamoq. 2. Kim xormoq bo'lmoq, xo'rlanmoq; joniga oro kirmoq. Kimning 1. Kim bir o'limdan qutqarib qolmoq. 2. Kim yoki nima og'ir ahvoldan qutqarmoq.

Bular qatorida frazema qanday turg'un shaklda qo'llanilgan bo'lsa, o'sha shaklda lug'atga mustaqil til birligi sifatida kiritilgan. Misol uchun, Kim qo'yibdi?!, ota go'ri-qozi xonami? Ko'z ochib yumguncha.

Frazeografiya tarixida dastlabki frazemalarning ma'no-mazmunining yoshga, jinsga xoslanganligini bildiruvchi belgilar bilan birga ularga sharhlar berilishi lug'atning ilmiy ahamiyatini oshirib yuborgan. Masalan, "bo'yi yetdi kimning-bo'yiga yetmoq kim [o'zining. Yoshi oila qurish darajasiga bordi (qizlarga qarata)]⁴⁴".

Leksemani leksikografik talqin qilish jarayoni murakkab bo'lib, bunda so'zning uzual maqomini aniqlash, semantik-struktur xususiyatlarini ochib berish, terminologik leksemalarni ajratish hamda daliliy misollarni tanlash kabi masalalar lug'at tuzuvchidan yuqori mahorat, sabr-toqat va ilmiy salohiyat talab qilishi ta'kidlanadi.

Lug'at tuzish tarixida bu jarayonning qanday shakllanib va takomillashib borganligi yoritiladi. Dastlabki lug'atlar cheklangan sonli so'zlarni qamrab olib, ko'pincha tuzuvchining tajribasi va kuzatishlariga asoslangan bo'lsa, XVIII–XIX asrlarga kelib milliy izohli lug'atlar shakllanib, ular tilning imlo me'yorlarini belgilash, semantik tizimini aniqlash va adabiy manbalar bilan tasdiqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Samuel Jonsonning "A Dictionary of the English Language", Grimmilar tomonidan yaratilgan "Deutsches Wörterbuch", V.Dalning "Толковый словарь живого великорусского языка" kabi yirik lug'atlar bu jarayonning yorqin namunasi sifatida ko'rsatiladi. Ularning barchasi leksemalarning tarixiy-etimologik ildizlarini, ma'no taraqqiyotini, turli dialektal ko'rinishlarini va daliliy misollarini chuqur tahlil qilishi bilan ajralib turadi.

Frazeografiya sohasining shakllanishida turli tilshunos olimlar tomonidan yaratilgan frazeologik lug'atlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, A.V.Kuninning ingliz tilidagi frazeologik lug'ati frazemalarni tizimli tarzda izohlash, ularning semantik xususiyatlari, qo'llanish doirasi hamda sinonimik-antonimik munosabatlarini yoritib berishi bilan katta ilmiy ahamiyatga ega. Shuningdek, rus tilshunosligida A.Molotkov tomonidan yaratilgan lug'atlarda frazemalar tematik guruhlarga ajratilgan holda qayd etilib, ularning konnotativ ma'nolari va stilistik imkoniyatlari ochib berilgan.

Turli olimlar tomonidan taklif etilgan rus tilidagi frazeologizmlar ro'yxatlari shu darajada bir-biridan farq qiladiki, buning natijasida frazeologizm tushunchasiga, ya'ni frazeologizmlarni ajratib turuvchi differensial belgilarga va rus tili frazeologik tizimining tarkibiga nisbatan turlicha, ba'zida esa to'g'ridan to'g'ri zid yoki bir-birini inkor etuvchi qarashlar mavjudligini tan olishga to'g'ri keladi⁴⁵. (Ta'kid bizniki).

⁴⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 12.

⁴⁵ Молотков А.И. (ред.) Фразеологический словарь русского языка. – М.: Сов. энциклопедия, 1968.

Natijada rus tili frazeologiyasi tarkibiga ba'zilar maqol, matal, qanotli so'zlar (hikmatli so'zlar), aforizmalarni kiritsalar, ba'zilar faqat bir qator turg'un so'z birikmalarini kiritish bilan chegaralanadilar. Hatto ba'zi bir tilshunos olimlar tomonidan lug'atda tavsiflovchi va tahliliy nutq birliklari, murakkab bog'lovchilar, murakkab predloglar, murakkab atamalar va hokazolar ham ayrim frazeologik birliklar sifatida ko'rib chiqiladi.

Ba'zi tadqiqotchilar quyidagi so'z birikmalarini ham frazeologizmlar qatoriga kiritadilar:

- горбатый нос – qiyshaygan burun
- толстый журнал – qalin jurnal
- раннее утро – ertalabki tong
- нервное лицо – asabiy yuz
- гнетущая тоска – ezuvchi g'am
- жмурить глаза – ko'z qisish
- рыдать навзрыд – qattiq (baqirib) yig'lash
- понурить голову – bosh egmoq

Shuningdek, ayrim yakka so'zlar ham frazeologizm sifatida baholanadi.

Masalan, quyidagilar:

- галиматья – bema'ni gap, tentakona safsata
- сумбур – chalkashlik, tartibsizlik
- абракадабра – abrakadabra (ma'nosiz so'zlar ketma-ketligi)
- чепуха – bo'lmag'ur gap, ahmoqona fikr
- тарабарщина – tushunarsiz, begona so'zlar aralashmasi
- ерундистика – ahamiyatsiz, ahmoqona narsa
- чушь – bema'nilik, safsata

Ushbu birliklar "bir so'zli idiomalar" (*однословные идиомы*) deb ataladi⁴⁶.

Yuqoridagi tanqidiy mulohazalardan keyin, A.I.Molotkov frazeologizmlarning bir tomondan – so'zdan, ikkinchi tomondan erkin so'z birikmalaridan, uchunchi tomondan gap strukturasi ega bo'lgan maqol-matallardan farq qiluvchi kategoriya belgilarini ko'rsatib o'tadi.

"Frazeologizm, – deb yozadi olim. – U o'ziga xos, faqat unga tegishli kategoriya belgilariga ega bo'lib, aynan shu belgilar majmuasi bir tomondan uni tilning mustaqil birligi sifatida ajratishga, boshqa tomondan esa uni boshqa til birliklaridan farqlashga imkon beradi. Frazeologizmning bunday belgilari quyidagilardan iborat: a) leksik ma'no, b) komponent tarkibi, d) grammatik kategoriyalarning mavjudligi"⁴⁷.

A.I.Molotkov tomonidan ko'rsatilgan belgilar ham so'zga, ham frazemaga tegishli bo'lganligi tufayli ularning o'xshash tomonini ko'rsatadi. Ularning farqli tomonlarini ko'rsatilgan kategorial belgilar orqali aniqlash mumkin.

– С. 7.

⁴⁶ Молотков А.И. (ред.) Фразеологический словарь русского языка. – М.: Сов. энциклопедия, 1968.

– С. 8.

⁴⁷ Молотков А.И. (ред.) Фразеологический словарь русского языка. – М.: Сов. энциклопедия, 1968.

– С. 8.

Bundan tashqari, frazemalar ma'nosini, ya'ni frazeologik ma'noni leksik ma'no deb belgilash mantiqqa mos emas. Chunki frazema leksema emas, u kamida ikki komponentli yangi til birligi va ushbu o'rinda "leksik (so'z) ma'no"ning frazeologik ma'noga nisbatan qo'llanishi leksemaning etimologik ma'nosiga to'g'ri kelmaydi. Ko'rsatilgan frazemaning tarkibi hamda undagi grammatik kategoriyalarning mavjudligi barcha frazeologlar tomonidan e'tirof etiladi. A.I.Molotkov tomonidan ilgari surilgan frazemalarning kategorial belgilari frazeologiya nazariyasida ikki yo'lni shakllanishiga olib keldi, ya'ni frazeologiyani keng va tor ma'noda tushunishga. Ushbu qarashlar M.I.Umarxo'jayevning "*Основы фразеологии*" asarida keng yoritilgani bois biz unga to'xtalib o'tmaymiz⁴⁸.

A.I.Molotkov frazeologiyani tor tushinish tarafdori sifatida rus tilidagi frazemalar tarkibiga quyidagilarni kiritmaydi:

1) so'z birikmalari, unda biror komponent o'zining maxsus, faqat shu kontekstdagi ma'nosiga ega bo'ladi. Masalan: *горбатый нос* (qiyshaygan burun), *телячий восторг* (bolalarcha hayajon), *осиная талия* (ingichka bel), *египетская работа* (mashaqqatli, og'ir mehnat), *лошадиная доза* (juda katta miqdor), *крутой кипяток* (qaynoq suv), *золотая молодежь* (boy oilalarning odobsiz farzandlari), *волчий аппетит* (o'ta kuchli ishtaha), *пиковое положение* (eng og'ir, tahlikali vaziyat), *гусиная кожа* (g'oz terisi, ya'ni to'lqinlanishdan hosil bo'lgan hushtak), *глушить водку* (ko'p miqdorda aroq ichmoq), *зашибать копейку* (o'son yoki ko'p pul topmoq).

2) ba'zi fe'l-ot birikmalari semantik jihatdan oddiy fe'lga tenglashtiriladi va leksik jihatdan bir birlik sifatida baholanadi. Ular orasida: *дать согласие – согласиться* (rozi bo'lmoq), *одержать победу – победить* (g'alaba qozonmoq), *сделать ошибку – ошибиться* (xato qilmoq), *наносить вред – вредить* (ziyon yetkazmoq), *оказывать помощь – помогать* (yordam bermoq), *принять решение – решить* (qaror qabul qilmoq), *заводить знакомство – знакомиться* (tanishmoq), *совершать нападение – нападать* (hujum qilmoq) kabi birikmalar mavjud.

3) shunday fe'l-ot birikmalari borki, ular kimnidir yoki o'zini ma'lum bir holatga keltirish ma'nosini anglatadi. Bunda asosiy semantik yuk *predlog + ot* shaklidagi qismga yuklanadi. Masalan: *доводить до бешенства* (g'azabga mindirmoq), *приходить в иступление* (to'lqinlanib hushini yo'qotmoq), *впасть в истерику* (isterikaga tushmoq), *вгонять в тоску* (g'amga cho'mdirmoq).

